

TERRORIZM VA EKSTRAMIZM TERMINLARINING MAZMUNI VA BU HARAKATLARNING INSONIYATGA YETKAZGAN ZARARI

Ibaydullayev Sayidjamol

*Toshkent davlat yuridik universitetining 1-kurs Jinoiy odil sudlov
fakulteti talabasi*

Annontatsiya. Ushbu maqolada XXI asrda butun dunyo uchun dolzarb muammoga aylangan terrorizm va diniy ekstramizm qanday illat ekani va uning shu paytgacha insoniyatga qanday zarar berganini muhokama qiladi va insonlarni bu illatlarga jiddiy qarashga undaydi .

Kalit soʻzlar : terrorizm , ekstramizm , TQKB , radikal

Kirish

Ohirgi 10 yillik davrda dunyo hamjamiyatiga haqiqiy muammoga aylangan terrorizm va ekstramizm masalasini hal etish uchun butun dunyo oʻz haraktlarini yanada kuchaytirdi . Ushbu soʻzlar koʻp hollarda yonma yon jaranglaydi . Eng achinarlisi bu soʻzlarni eshitgan har bir insonning koʻz oldida urush , vayrongarchilik , qonli tasvir gavdalanadi . Terrorizm va ekstramizm rivojlangan , rivojlanayotga yokida qolloq davlatlarga birdek xavf soladi. Ushbu buzgʻunchi harkatlarda faol boʻlgan bir necha tashkilotlar mavjuda . Global terrosim index saytini malumotiga koʻra oxirgi 5 yillikda sodir bolgan qoʻporuvchilik , portlashlar , odamlar joniga suiqasd qilish kabi jinoyatlarni ISHIT , AL QOIDA kabi guruhlar tashkil etgani va bu harkatlarga koʻplab vajlar sabab qilib keltirilganini malum qiladi . Haqiqatdan ham ushbu harkatlar kelib chiqishi va ommalshishi uchun turli sabablar mavjud . Ushbu maqolada terrorizm va ekstramizm vujudga kelishining sabablari , ularning oqibatlar va oldini olish usullari muhokama qilinadi .

Adabiyotlar tahlili va metadalogiya

Bugungi kunda terrorizm va ekstramizm soʻzlarini har bir inson hayotida bir marotaba bʻolsa ham eshitgan . Ushbu harakatlarning yillik “ natijalarini “ , oʻsish koʻrsatkichlarini va qaysi hududda, qay maqsadda amlagaoshirilganini koʻzdan kechirish uchun xalqaro hamjamiyat tashabbusi bilan Global Terrorism Index (GTI) tashkiloti tuzuldi . Aytib oʻtganimizdek ushbu tashkilot terrorizm va ekstramizm harakatlarining statistikasini amalga oshiradi . Ushbu tashkilot hisobotlariga koʻra oxirgi 20 yil muddatda asosiy harakatlar sharq va gʻarb mamlakatlarida kuzatilgan , bunda eng koʻp terroristik harakatlar sodir etilgan davlatlar qatorida AQSH , Iroq ,Albaniya , Suriya ,Afgʻoniston va boshqa mamlakatlar joy olgan . Afsus bilan shuni maʼlum qilishimiz kerakki ushbu roʻyxatning 29 oʻrnida Oʻzbekiston ham keltirib oʻtilgan . Mamlakatimiz hududida tashkil etilgan va oʻzining samarali faoliyatini amalga oshirib kelayotgan Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining statistik maʼlumotlariga qaraganda davlatimiz mustaqillikni qoʻlga



kiritganidan beri sodir etilgan terroristik harakatlarning qariyb 64% ning oldi olingan . Ushbu tashkilotlar har yili 3ga yaqin portlash va 1ga yaqin noqonuniy jamoalarning konsultatsiyaviy tuzumimizga qarshi qaratilgan faol harakatlarini bartaraf etishadi . Bu harkatlarning qonuniy asosini yaratish maqsadida 2000-yil 15-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan . Ushbu qonuning asosiy vazifasi etib davlat o‘rganlarining(DXX ,IIV, Mudofaa, Milliy gvardiya va boshqalar) terrorizmga qarshi harakatlarini tartibga solish , ushbu harakatlarni sodir etishda ishtrok etgan , tashkillashtirgan shaxslarga nisbatan adolatli va qononiy chora ko‘rish tartib belgilangan va bunday harakatlarga munosib ravishda javob choralari berish keltrib o‘tilgan . Yuqoridagi aytib o‘tilgan tashkilotlar , qonu va barcha harakatlarning amaliy faoliyatini ko‘rsatish maqsadida O‘zbekteleradio kompaniyasi tomonidan 2005-yil 13-mayda Andijonda sodir etilgan terroristik harakatlarni o‘zida aksettirgan kino film suratga olingan .

Muhokama va Natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT bosh ansambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida “ Biz butun jahon hamjamiyatiga islom dinnining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz . Biz muqaddas dinimizning azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz “ deb ta’kidlagan . Ushbu nutuq islom dinining asl mohiyati tinchlik , insonparvarlik ekanini eslatadi . Ammo yaqin o‘tmishdan beri garaz niyyatli kimsalar ushbu pok dinni o‘z niqoblariga aylantirib o‘zlarining jirkanch ishlarini terrorizm va ekstramizm orqali amalga oshirishni ko‘zlaydilar . Avvalo bu harakatlarni noto‘g‘ri ekanini tushunishimiz uchun ushbu so‘zlar ma’nosiga to‘htalishimiz zarur .Terorizm – bu siyosiy raqiblarni yo‘qqilish yoki ularni qo‘rqitish aholi orasida vahima va tartibsizlik keltirib chiqarish (portlatish, quroli hujumlar ommaviy tartibsizlik orqali amalga oshiriladi)tushuniladi . O‘zbekiton Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda “ Terorizmga qarshi kurash to‘grisidagi “ qonunda terrorizmga quydagicha tarif beriladi

Terorizm – bu siyosiy , diniy mafkuraviy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti , sog‘lig‘i uning yashash sharoitiga xavf tug‘duruchi , bundan tashqari xalqaro munosabatlarni barbod qiluvchi yoki ushbu munosabatlarni murakkablashtiruvchi , O‘zbekiton mustaqiligi , suverenitetiga tahdid qiluvchi harakat .

Ekstramizm atamasiga to‘htaladigan bo‘lsak , bu so‘z lotinchadan olingan bo‘lib “ Radikal fikr tarofdori , eski qarashlarni yoqllovchi , keskin fikrlarni qo‘llab quvvatlovchi “ ma’nosida anglatadi . Aynan shu payt bir savol paydo bo‘ladi . Qanday qilib ushbu ikki atama ham mazmunan ham amaliy jihatdan bir biriga big‘liq bolishi mumkin? Yuqorida takidlanganidek terrorizm bu buzg‘unchi harakatlar – portlatish , yoqqilish , insoniyatga xavf solish . Bu harakatlar oxiri oqibat yaxshilik bilan yakunlanmasligi barchaga ma’lum va bu harkatlarni bajaruvchi odamlarni birdaniga jalb qilish imkonsiz albatta , leki ekstramistik g‘oyalar asosida hoh u erkak kishi bo‘lsin , hoh u ayol kishi bo‘lsin norasida



ularni vayronkor g'oyalarni yoqlovchi , ushbu harakatlar uchun hatto o'z joniga ham qasd qilishga tayyor bo'lganan “ zo'mbirl”ga aylantirish mumkin . Aynan shu mexanizm bu ikki tushunchani bir biriga qanday bog'lanishini soda tarzda tushuntira oladi . Butun dunyo bo'ylab aynan manashu mexanizm asosida ko'plab qo'poruvchilik , hokimyat to'ntarishlari , davlat va xalqa orasida jiddiy ziddiyatlar vujudga kelmoqda va millionlab begunoh insonlar – bolalar , qariyalar ayollar o'zlari hohlamagan tarzda , erksiz nishonga aylanmoqda .Aynan shunday nohush holatarga dunyo miqyosida sodir bo'lgan harakatlarni misol qilaolamiz :

Barchaga ma'lum bo'lgan 2001 yil 11 sentabrda sodir etilgan AQSH (egizak minoralar) voqealari . Qurbonlar soni 500 dan ortiq

2016 yil 22 mart Parij (Burusel) voqealari . Bu hodisa aeroport va metro stansiyalarida sodir bo'lgan, qurbonlar soni 32 kishini tashkil etadi , yaralanganlar esa 300 nafardan ortiq

2016 yil 14 iyuldagi Fransiya voqealari . Aynan mustaqillik bayramida uyushtirilgan terroristik harakatda 86 kishi halok bo'lgan

Yaqin yillarda sodir etilgan hodisalarga esa 2024 yil 22 martda Moskvadagi savdo markazi yuz bergan hujum . Aynan shu harkat barcha mamlakatlarni sergak tortirdi . Qurbonlar soni 144 tani tashkil etadi .

Bunday harakatlardan O'zbekiston ham chetda qolmagan . Xususan 2005 yil 13 may – Andijon qirg'ini qurbonlar soni 187- 1500 kishi

2004 yilda poytaxtimizda sodir etilgan o'zini portlatish holatlari. Bu harakatlarda nishon AQSH va Isroil elchixonalari bo'lgan . Qurbonlar soni 17 nafar

Yuqorida ko'rsatilgan barcha harakatlar ortida ISLAMIC JIHAD UNION , TOLIBON ISHIT , AL – QOIDA, BOKO HARAM kabi xalqaro terroristik tashkilotlar turgani aniqlangan .

Eng achinarli narsa hali hamon ushbu tashkilotlar o'z faoliyatini to'xtatmayotgani va ularning safiga ko'plab yoshlar qoshilayotgani achinarli hol. O'zbekiston Respublikasi IIV ning Terorrizmga qarshi kurash bo'limi (TQKB) malumotiga ko'ra 2015-2025 yillar orasida 2000 ga yaqin fuqarolarimiz ushbu tashkilotlarning tuzog'iga ilingan va ular radikal g'oyalar tasiriga tushib , terroristik harakatlarga safarbar etilgan.

Ushbu ma'lumotlarni ko'rgan har qanday insonda bu holatni oldini olish uchun nima qilish kerak degan mazmunda savol paydo bo'ladi . Shu o'rinda hukumatimiz tomondan bugungi kunda amalga oshirilayotgan profilaktika ishlarini oladigan bo'lsak : xalqaro terrorchi guruhlarining radikal g'oyalarini tarqatuvchi internet tarmoqlari kuzatuvga olingani , ularning harakatlari cheklangani , ta'lim maskanlarida yoshlar bilan tegishli tashkilotlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazilishi va ularga terrorizmi va ekstramizm qanday yomon illat ekani tushuntirilishi , ushubu harakatlar sodir etgan shaxslarga qattiq choralar belgilangani oz bolsada o'z samarasini bermoqda . Har bir inson bu illatlarni anglashi , atrofdagi voqealarga be farq bo'lmasligi , do'stalari va tanishlarini bunday harakatdan qaytarishi va tegishli tashkilotlarga habar berishi orqali o'z xavfsiligini



taminlashi, nafaqat o'zining bali, dunyo tinchligini taminlashga o'z xissasini qosha olishini takidlash joiz .

Xulosa

Xulosa ornida shuni aytishimiz lozim. Yuqorida aytib o'tilgan holatlarni tahlil qilib bu oddiygina ikki so'z ortida millionlab tirik jon borligini anglashimiz , atrofimizdagi insonlarni radikal qarash egalarining "to'ridan" asrashimiz , hukumatimiz tomondan amalga oshirilayotga ishlarga ijobiy yondashib , ular bila hamkorlikda vatanimizni bunday illatlarda birgalikda himoya qilishimiz zarur.

Foydalanilgan manbalar ; Global Terrorism Index (GTI)

- O'zbekiston Respublikasi IIV va Davlat xavfsizlik xizmati statistik ma'lumotlari . O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
- . ANDIJON VOQEALARI real hayotga asoslangan terorrizm va diniyekstramizm haqidagi film
- . Ichki ishlar vazirligi TQKB malumoti .